
KITOBXON VA IJODKOR YOSHLAR BILAN UCHRASHUV

Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari N.Otabekov va 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi jamoasining tashabbusi bilan o'quvchilarning ma'naviyatini yuksaltirish hamda ijodkorligini, kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida targ'ibot tadbiri o'tkazildi.



Maktab kutubxonasida o'tkazilgan ushbu tadbirda jamoaning o'qituvchilari va kutubxonachilari, tuman Axborot kutubxona markazi xodimlari bilan birga maktabning 30 nafarga yaqin ijodkor o'quvchilari ishtirok etdilar.

Tadbir davomida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari N.Otabekov O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ta'lim - tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan, shuningdek, yoshlarni kitobga bo'lgan qiziqishlarini oshirish va ularga qulay sharoit yaratish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarga to'xtalib o'tdi.

Tadbirda so'z olgan murabbiylar ushbu maktabda ijodkor yosh o'quvchilar ko'pligini aytib o'tdilar. Maktabning 8-"B" sinf o'quvchisi S.Nosirova esa yig'ilganlarga o'zi yozgan "Oqibat" nomli she'rini o'qib berdi.



Ijodkor va kitobxon o'quvchilar S.Nosirova, M.Olimova, M.Hakimbekovalarni kitobga bo'lgan muhabbatlarini yanada oshirish maqsadida Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Qo'shtepa tumani bo'linmasi rahbari N.Otabekov tomonidan tuman hokimining sovg'alari topshirildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-11-28 14:07:18